

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDAGI TA’LIMGA OID
NORMALAR TAHLILI VA ULARNI MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI
BILAN QIYOSIY-HUQUQIY O‘RGANISH**

Xakim Qavulovich OLIMOV

magistrant

M.Avezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston

tadqiqot universiteti Chirchiq filiali

Chirchiq, O‘zbekiston

Annotatsiya

Ushbu maqolada yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta’lim huquqini kafolatlovchi normalarning mazmun-mohiyati tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston konstitutsiyalaridagi ta’limga oid qoidalar bilan qiyosiy tahlil amalga oshirilgan. O‘zbekistonning ta’lim sohasidagi zamonaviy huquqiy yondashuvi, xususan, ona tilida ta’lim olish, xususiy ta’lim muassasalarining erkinligi, inkluziv ta’lim hamda akademik erkinlik kabi masalalar ilmiy asosda ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar: O‘zbekiston Konstitutsiyasi, ta’lim huquqi, ona tilida ta’lim, xususiy ta’lim, bolalar huquqlari, Markaziy Osiyo davlatlari, qiyosiy tahlil, inson kapitali, akademik erkinlik, inkluziv ta’lim.

**АНАЛИЗ НОРМ ОБ ОБРАЗОВАНИИ В КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН И СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СО
СТРАНАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ**

Хаким Кавулович ОЛИМОВ

магистрант

Чирчикский филиал Южно-Казахстанского исследовательского университета

имени М. Аvezова

Чирчик, Узбекистан

Аннотация

В данной статье систематически анализируется содержание и сущность норм, гарантирующих право на образование в новой редакции Конституции Республики Узбекистан. В рамках исследования проведен сравнительный анализ с положениями об образовании в конституциях стран Центральной Азии – Казахстана, Кыргызстана, Таджикистана и Туркменистана. Автор научно раскрывает современный правовой подход Узбекистана к сфере образования, в частности, такие вопросы, как образование на родном языке, свобода частных образовательных учреждений, инклюзивное образование и академическая свобода.

Ключевые слова: Конституция Узбекистана, право на образование, образование на родном языке, частное образование, права детей, страны Центральной Азии, сравнительный анализ, человеческий капитал, академическая свобода, инклюзивное образование.

Insoniyat tarixining barcha bosqichlarida ta'lim nafaqat bilim berish jarayoni, balki davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi, jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantiruvchi va millatning kelajagini belgilovchi strategik resurs bo'lib kelgan. Bugungi kunda jahon hamjamiyatida "inson kapitali" tushunchasining birinchi darajaga ko'tarilishi ta'lim huquqini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlashni va uni davlatning eng ustuvor vazifalaridan biriga aylantirishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi o'zining yangi taraqqiyot bosqichida – "Yangi O'zbekiston" strategiyasi doirasida ta'lim sohasini tubdan isloh qilishni boshladi. Bu jarayonning huquqiy poydevori sifatida 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumini orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ko'rsatish mumkin. Mazkur hujjatda ta'lim huquqi shunchaki deklarativ norma sifatida emas, balki davlatning aniq ijtimoiy majburiyati sifatida muhrlandi. Ayniqsa, global raqobat kuchaygan, texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan davrda har bir fuqaroning sifatli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash – mamlakatning milliy xavfsizligi va xalqaro nufuzi bilan bevosita bog'liqdir.

Ta'lim huquqi va uning konstitutsiyaviy kafolatlari masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, A.X. Saidov, R. Bobojonov kabi huquqshunos olimlar o'z asarlarida konstitutsiyaviy huquq asoslari va ta'lim sohasidagi huquqiy mexanizmlarni nazariy jihatdan asoslab berganlar. Shuningdek, UNESCO kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan mintaqaviy va global darajadagi ta'lim perspektivalari bo'yicha keng ko'lamli tahlillar o'tkazilgan. Biroq, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarining yangilangan konstitutsiyalarini qiyosiy-huquqiy jihatdan, aynan zamonaviy islohotlar nuqtai nazaridan o'rganish hamon dolzarb ilmiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi [1] ta'limga oid normalarni tahlil qilish hamda ularni qo'shni Markaziy Osiyo davlatlari – Qozog'iston [6], Qirg'iziston [7], Tojikiston [8] va Turkmaniston [9] konstitutsiyaviy tajribasi bilan qiyosiy o'rganishdan iborat. Shu maqsadda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1) O‘zbekiston Konstitutsiyasidagi 39, 41-moddalarning mazmun-mohiyatini hamda "Bolalar – davlatning eng oliy qadriyati" tamoyilining huquqiy tabiatini ochib berish;

2) Markaziy Osiyo davlatlari konstitutsiyalarida ta’lim huquqi qanday shakllarda ifodalanganligini tahlil qilish;

3) mintaqa mamlakatlarida ona tilida ta’lim olish va xususiy ta’lim muassasalari faoliyatining huquqiy asoslarini qiyoslash;

4) O‘zbekistonning ta’lim sohasidagi huquqiy modelining o‘ziga xos afzalliklarini ilmiy asoslash.

Tadqiqot obyekti sifatida Markaziy Osiyo davlatlaridagi ta’lim sohasini tartibga soluvchi konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar olingan. Predmetni esa mazkur davlatlar konstitutsiyalaridagi ta’limga oid normalar, huquqiy kafolatlar va ularning amaliyotga tatbiq etilish mexanizmlari tashkil etadi.

Ushbu maqolada ilk bor 2023-yilda yangilangan O‘zbekiston Konstitutsiyasi normalari asosida Markaziy Osiyo davlatlarining ta’lim huquqi bo‘yicha "yagona mintaqaviy tahlil" xaritasi shakllantirilgan. Tadqiqotda ona tilida ta’lim olish huquqining konstitutsiyaviy maqomi va xususiy ta’lim subyektlarining huquqiy erkinligi masalalari qiyosiy tahlil orqali yangicha talqin etilgan. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy islohotlari shuni ko‘rsatadiki, mamlakat "inson qadri uchun" tamoyilini hayotga tatbiq etishda aynan ta’limni poydevor sifatida tanlagan. Bu esa, o‘z navbatida, mintaqadagi boshqa davlatlar uchun ham namuna bo‘ladigan huquqiy modelni yaratish imkonini berdi.

Konstitutsiyaning 50-moddasida (eski 41-modda tahriri kengaytirilgan holda) har bir insonning ta’lim olish huquqi so‘zsiz ekanligi belgilangan. Davlat bepul umumiy o‘rta ta’limni va maktabgacha ta’limni kafolatlaydi. Bu ijtimoiy davlat tamoyilining eng yorqin ko‘rinishidir. Ta’kidlash joizki, yangi tahrirda davlatning maktabgacha ta’limni rivojlantirish bo‘yicha majburiyati birinchi marta oliy qonun darajasida mustahkamlandi.

Akademik A.X. Saidov ta'kidlaganidek, "Konstitutsiyaviy kafolatlar ta'limning hamma uchun ochiqligini ta'minlash barobarida, uning sifatini nazorat qilish mas'uliyatini ham davlat zimmasiga yuklaydi" [12; 114].

Yangi Konstitutsiyada oliy ta'lim muassasalariga qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish mustaqilligi huquqi berildi. Bu norma O'zbekiston oliy ta'lim tizimining xalqaro standartlarga (masalan, Magna Charta Universitatum) integratsiyalashuvi uchun huquqiy poydevor bo'ldi. Shuningdek, fuqarolarning davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida bepul oliy ma'lumot olish huquqi saqlab qolindi.

Konstitutsiyada ta'lim muassasalari davlat nazorati ostida erkin tashkil etilishi ko'rsatilgan. Bu xususiy ta'lim muassasalarining huquqiy legitimizatsiyasini ta'minlaydi. 2023-yilgi islohotlar xususiy maktab va universitetlar faoliyatini cheklash emas, balki ularni davlatning hamkori sifatida tan olishga qaratilgan. Bu esa ta'lim bozorida sog'lom raqobatni vujudga keltiradi [4; 45].

Konstitutsiyaning 50-moddasi va 4-moddasi o'zaro bog'liqlikda har bir shaxsning o'z ona tilida ta'lim olish huquqini kafolatlaydi. O'zbekistonda bugungi kunda ta'lim 7 ta tilda olib borilayotgani ushbu normaning hayotiylikini ko'rsatadi. Bundan tashqari, yangi tahrirda alohida ehtiyojlarga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirish davlatning ustuvor vazifasi etib belgilandi.

Markaziy Osiyo davlatlari konstitutsiyalarini tahlil qilish orqali ularning ta'limga bo'lgan huquqiy yondashuvlarini uchta: liberal, konservativ va oraliq guruhga bo'lish mumkin.

Qozog'iston Konstitutsiyasining [6] 30-moddasiga ko'ra, fuqarolarning davlat muassasalarida bepul o'rta ta'lim olishi kafolatlanadi. Qozog'iston tajribasida e'tiborli jihat shundaki, oliy ta'lim olish uchun davlat grantlari tizimi konstitutsiyada aniq ko'rsatilgan. Biroq, O'zbekiston Konstitutsiyasidan farqli o'laroq, ona tilida ta'lim olish huquqi asosiy qonunda O'zbekistondagidek batafsil va qat'iy modda sifatida ajratilmagan.

Qirg'iziston [7] asosiy qonunining 45-moddasida esa ta'limning majburiyligi va bepul umumiy o'rta ta'lim belgilangan. Qirg'iziston konstitutsiyasida o'qituvchining

maqomi va uning ijtimoiy himoyasi bo'yicha normalar mavjud bo'lib, bu O'zbekistonning yangi tahrirdagi "o'qituvchining sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish" haqidagi normasiga yaqin keladi. Ammo akademik mustaqillik masalasi O'zbekistondagidek keng yoritilmagan.

Tojikiston Konstitutsiyasining [8] 41-moddasi ta'lim huquqini belgilaydi. Bu yerda asosiy e'tibor umumiy o'rta ta'limning majburiylikiga qaratilgan. Turkmanistonda esa (38-modda) ta'lim tizimi mutlaq davlat nazoratida. Turkmaniston konstitutsiyasida xususiy ta'limga ruxsat beruvchi normalarning mavjud emasligi va amaliyotda ta'lim bozorining yopiqligi inson kapitalining rivojlanishiga to'siq bo'lmoqda. O'tkazilgan qiyosiy-huquqiy tahlil natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi: O'zbekiston – ta'lim huquqi mintaqada ancha keng va zamonaviy kafolatlagan davlat desa bo'ladi. Xususan, “akademik erkinlik” va “maktabgacha ta'limning davlat kafolati” kabi normalar mintaqadagi boshqa konstitutsiyalarda bunday darajada aks etmagan. O'zbekiston ko'p millatli jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda, ona tilida ta'lim olishni konstitutsiyaviy darajada kafolatlagan. Bu integratsiya va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. "Bolalar – davlatning eng oliy qadri" degan norma ta'lim tizimidagi barcha islohotlarni bolaning manfaatlarini atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. X.Abdullayevning fikricha, “Markaziy Osiyo davlatlari ichida O'zbekiston ta'lim tizimini demokratlashtirish va xususiylashtirish borasida eng dadil huquqiy qadamlarni tashladi” [3; 67].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mintaqada ta'lim huquqini eng zamonaviy va insonparvar shaklda kafolatlagan hujjatdir. Yangi tahrirdagi normalar ta'limni nafaqat xizmat ko'rsatish sohasi, balki millat genofondini asrash va rivojlantirish vositasi sifatida talqin qiladi. Tadqiqot asosida quyidagi ilmiy va amaliy takliflar ilgari suriladi:

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida ta'lim standartlarini unifikatsiya qilish va diplomlarni o'zaro tan olishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini mustahkamlovchi mintaqaviy konvensiya ishlab chiqish.

Konstitutsiyadagi o'qituvchi maqomiga oid normani rivojlantirish maqsadida "O'qituvchi maqomi to'g'risida"gi qonun doirasida ijtimoiy imtiyozlar paketini yanada kengaytirish.

Xususiyy ta'lim sektorini konstitutsiyaviy kafolatlar asosida qo'llab-quvvatlash orqali davlat byudjetiga tushadigan yukni kamaytirish va sog'lom raqobat muhitini yaratish.

Masofaviy va raqamli ta'lim olish huquqini qonunchilik darajasida konstitutsiyaviy "ta'lim olish huquqi"ning tarkibiy qismi sifatida batafsil tartibga solish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 80 b.
2. Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги Қонуни. – Тошкент, 2020.
3. Abdullayev X. Markaziy Osiyo davlatlarida ta'lim tizimi: qiyosiy tahlil. – Samarqand: SamDU, 2022. – 215 b.
4. Бобожонов Р. Янги Ўзбекистон: Таълим ҳуқуқи ва конституциявий ислохотлар. – Тошкент: Маънавият, 2020. – 190 б.
5. Ismoilov Sh. Milliy ta'lim tizimida xalqaro standartlar. – Toshkent: Innovatsiya, 2023.
6. Конституция Республики Казахстан. – Астана, 1995 (с изменениями 2022 г.).
7. Конституция Кыргызской Республики. – Бишкек, 2021.
8. Конституция Республики Таджикистан. – Душанбе, 1994 (с изменениями 2016 г.).
9. Конституция Туркменистана. – Ашхабад, 1992 (с изменениями 2020 г.).
10. Karimov N. Pedagogika va huquq: integratsiyalashgan yondashuv. – Qarshi: Nasaf, 2022.

11. Мадаминов А. Конституцияда инсон ҳуқуқлари кафолати. – Тошкент: Адолат, 2021.
12. Саидов А.Х. Конституциявий ҳуқуқ: олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент: ТДЮУ, 2018. – 450 б.
13. Gulyamov S.S. Raqamli huquq va ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2023. – 280 b.
14. UNESCO. Right to education: Global frameworks and regional challenges. – Paris, 2021. – 320 p.
15. World Bank. Education in Central Asia: Reforming for the future. – Washington, 2022.